MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN MATNLAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY VA TANQIDIY FIKRLASHINI DIAGNOSTIKA QILISH METODIKASI

Ziyodullayeva Zuhro Faxriddin qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340001

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlash darajasini milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar vositasida aniqlash muammosi ko‘rib chiqiladi. Mavjud diagnostika usullarining kichik yoshdagi o‘quvchilarga va milliy ta’lim muhitiga moslik darajasi tahlil qilinadi. Qadriyatli matnga tayangan, tanqidiy fikrlashning to‘rt va ijodiy fikrlashning to‘rt ko‘rsatkichini qamrab oluvchi sakkiz topshiriqli diagnostik vosita, uni baholash tizimi va o‘tkazish tartibi ishlab chiqilgan. Vositaning ishonchliligini ta’minlash yo‘llari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, milliy qadriyatlar, qadriyatli matn, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, pedagogik diagnostika, diagnostik topshiriq, baholash mezonlari, divergent fikrlash.

Аннотация. В статье рассматривается проблема определения уровня творческого и критического мышления младших школьников посредством текстов, основанных на национальных ценностях. Анализируется степень соответствия существующих диагностических методик младшему школьному возрасту и национальной образовательной среде. Разработан диагностический инструмент из восьми заданий на основе ценностного текста, охватывающий четыре показателя критического и четыре показателя творческого мышления, а также система его оценивания и порядок проведения. Обсуждаются пути обеспечения надёжности инструмента.

Ключевые слова: начальное образование, национальные ценности, ценностный текст, творческое мышление, критическое мышление, педагогическая диагностика, диагностическое задание, критерии оценивания, дивергентное мышление.

Abstract. The article addresses the problem of assessing primary school pupils’ creative and critical thinking through texts based on national values. The suitability of existing diagnostic methods for young learners and for the national educational context is analysed. An eight-task diagnostic instrument based on a value-oriented text is developed, covering four indicators of critical thinking and four indicators of creative thinking, together with its scoring system and administration procedure. Ways of ensuring the reliability of the instrument are discussed.

Keywords: primary education, national values, value-based text, creative thinking, critical thinking, educational assessment, diagnostic task, scoring criteria, divergent thinking.

Kirish

Boshlang‘ich ta’limda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish haqida ko‘p yoziladi, bu ko‘nikmalarning o‘quvchida qay darajada shakllanganini qanday aniqlash haqida esa kam. Holbuki, o‘lchanmagan narsani rivojlantirish qiyin: o‘qituvchi qaysi bolada nima yetishmayotganini bilmasa, uning yordami ham tasodifiy bo‘lib qoladi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda va Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim sifatini baholashni takomillashtirish vazifasi alohida belgilangan [1; 2].

Amaliyotda boshlang‘ich sinf o‘quvchisining fikrlashi asosan ikki yo‘l bilan baholanadi. Birinchisi - matn mazmuni bo‘yicha savollar. Ular ko‘pincha matnda tayyor javobi bor savollardan iborat bo‘ladi va bolaning eslab qolish qobiliyatini o‘lchaydi. Ikkinchisi - xorijiy psixologik testlar. Ular ilmiy jihatdan asoslangan, lekin ko‘pincha bolaga notanish mazmunga tayanadi va o‘qituvchining kundalik ishida qo‘llash uchun murakkab.

Xalqaro baholash tadqiqotlari ham bu masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi. PIRLS 2021 tadqiqotida mamlakatimizdagi to‘rtinchi sinf o‘quvchilari matndan ma’lumot topish va oddiy xulosa chiqarishda 441 ball, matnni talqin qilish va baholashda esa 430 ball to‘plagan [3]. Bu farqni o‘qituvchi o‘z sinfida ham ko‘ra olishi uchun unga oddiy, tushunarli va milliy mazmunga tayangan diagnostik vosita kerak.

Milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar bunday vosita uchun qulay asos bo‘la oladi. Ular bolaga tanish hayotiy vaziyatni tasvirlaydi, ko‘pincha axloqiy tanlovni o‘z ichiga oladi va shu orqali ham tanqidiy baholash, ham ijodiy izlanish uchun tabiiy imkon yaratadi. Maqolaning maqsadi milliy qadriyatli matn asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish va asoslashdan iborat.

Asosiy qism

Ijodiy fikrlashni diagnostika qilishning ilmiy an’anasi J. Gilfordning divergent fikrlash haqidagi g‘oyasidan boshlanadi [4]. E. Torrens bu g‘oya asosida ijodiy fikrlashning to‘rtta ko‘rsatkichini ajratdi: ravonlik - g‘oyalar soni; egiluvchanlik - g‘oyalarning turli toifalarga mansubligi; originallik - g‘oyaning kamyobligi; ishlab chiqish - g‘oyaning batafsil ifodalanishi [5]. Torrens testlari bugungi kunda ham eng ko‘p qo‘llanadigan vositalardan biri, ammo ular mazmunan neytral topshiriqlarga tayanadi va natijani bola o‘qiyotgan matn bilan bog‘lamaydi.

Bolalar ijodkorligini baholashda J. Kaufman va R. Begetto taklif etgan “to‘rt C” modeli muhim ahamiyatga ega. Unda “mini-c” darajasi, ya’ni shaxs uchun yangi bo‘lgan tushuncha va talqinlar ham ijodkorlik sifatida e’tirof etiladi [6]. Bu boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ijodiy javobini kattalar mezonlari bilan emas, uning yoshi va tajribasi nuqtai nazaridan baholash zarurligini ko‘rsatadi. M. Ranko va G. Yeger ijodkorlikning standart ta’rifida originallik bilan birga samaradorlikni, ya’ni g‘oyaning vaziyatga mosligini ham majburiy shart sifatida belgilagan [7]. Demak, bolaning g‘ayrioddiy, lekin matn vaziyatiga mutlaqo aloqasiz javobini yuqori baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi.

Tanqidiy fikrlashni baholashda P. Fasione rahbarligidagi ekspertlar guruhi ishlab chiqqan ta’rif keng tarqalgan: talqin qilish, tahlil, baholash, xulosa chiqarish,

tushuntirish va o‘zini o‘zi boshqarish [8]. R. Ennis tanqidiy fikrlashni nimaga ishonish va nima qilish haqida qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan oqilona refleksiv fikrlash deb ta’riflagan [9]. D. Halpern esa tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini, jumladan, fakt va fikrni ajratish hamda dalilni baholashni maxsus topshiriqlar orqali o‘lchash va o‘rgatish mumkinligini asoslagan [10]. PIRLS tadqiqotining nazariy asosida o‘qib tushunish to‘rt jarayonga ajratiladi: aniq ma’lumotni topish, bevosita xulosa chiqarish, g‘oyalarni talqin qilish va birlashtirish, matn mazmunini baholash [11]. Bu tasnif matnga asoslangan tanqidiy fikrlash topshiriqlarini darajalarga ajratish uchun qulay tayanch bo‘ladi.

Qadriyatlar va fikrlash aloqasiga oid ishlar orasida L. Rets va hammualliflarning qadriyatlarni aniqlashtirish nazariyasi alohida o‘rin tutadi: qadriyat bola tanlov qilib, uni asoslagan paytda shakllanadi [12]. M. Lipmanning bolalar uchun falsafa dasturi esa axloqiy savol atrofidagi munozara kichik yoshdagi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishini ko‘rsatgan [13]. Mahalliy tadqiqotchilardan Z.T. Nishonova mustaqil ijodiy fikrlashning psixologik asoslarini o‘rgangan [14]. D.R. Shabbazova boshlang‘ich ta’lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirib, o‘quvchilar rivojlanishini kognitiv, aksiologik, kommunikativ, refleksiv va faoliyatli mezonlar bo‘yicha baholash tizimini taklif etgan [15].

Tahlil ko‘rsatadiki, ijodiy va tanqidiy fikrlashni o‘lchash usullari ilmiy jihatdan yaxshi ishlangan, ammo ular odatda bir-biridan alohida qo‘llanadi va milliy qadriyatli mazmunga tayanmaydi. Ikkala fikrlash turini bitta qadriyatli matn asosida, bitta diagnostik jarayonda aniqlash imkonini beruvchi vosita esa boshlang‘ich ta’lim amaliyoti uchun hali ishlab chiqilmagan.

Diagnostik vositani ishlab chiqishda nazariy tahlil, pedagogik modellashtirish va loyihalash usullaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda ilmiy adabiyotlar asosida o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar aniqlandi. Tanqidiy fikrlash uchun PIRLS jarayonlari va Halpern yondashuvidan kelib chiqib to‘rtta ko‘rsatkich tanlandi: ma’lumot topish, sabab-oqibatni aniqlash, fakt va fikrni ajratish, baholash va dalillash. Ijodiy fikrlash uchun Torrensning to‘rt ko‘rsatkichi asos qilib olindi: ravonlik, egiluvchanlik, originallik va ishlab chiqish.

Ikkinchi bosqichda diagnostik matnga qo‘yiladigan talablar belgilandi. Matn 3-4-sinf o‘quvchisi uchun 80-100 so‘zdan oshmasligi, bolaga tanish milliy muhitda kechishi, qahramon oldida aniq qadriyatli tanlov turishi va yakuni ochiq bo‘lishi kerak. Uchinchi bosqichda har bir ko‘rsatkichga bittadan topshiriq ishlab chiqildi va ularni baholash qoidalari tuzildi. Vosita 3-4-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan.

Diagnostik matn. Yuqoridagi talablar asosida biz quyidagi matnni tuzdik: *Shanba kuni mahallada hashar bo‘ladigan bo‘ldi. Yolg‘iz yashaydigan Karim boboning uyi tomini yomg‘ir boshlanmasidan oldin tuzatish kerak edi. Jasurning dadasi qo‘shnilarni hasharga chaqirdi. Jasur esa shu kuni do‘sti bilan hayvonot bog‘iga borishni bir haftadan beri orziqib kutayotgan edi. Ertalab dadasi: “O‘g‘lim, xohlasang, bizga yordam ber, xohlasang, do‘sting bilan bor. O‘zing hal qil”, dedi. Jasur derazadan qaradi. Karim bobo hovlida qo‘shnilarga choy damlab yurardi.*

Matnda hashar, keksalarga g‘amxo‘rlik va qo‘shnichilik kabi milliy qadriyatlar

shaxsiy istak bilan to‘qnashadi. Dadaning so‘zlari tanlovni bolaning o‘ziga qoldiradi, bu esa matnni axloqiy nasihatdan xoli qiladi va o‘quvchini mustaqil baholashga undaydi.

Diagnostik topshiriqlar. Matn asosida sakkizta topshiriq ishlab chiqildi. Ularning har biri bitta ko‘rsatkichni o‘lchaydi (1-jadval).

1-jadval.

Diagnostik topshiriqlar tizimi

Ko‘rsatkich	Topshiriq	Nimani aniqlaydi
T1. Ma’lumot topish	Nega tomni tezroq tuzatish kerak edi?	Matndagi aniq ma’lumotni topa olishni
T2. Sabab-oqibat	Nima uchun qo‘shnilar aynan Karim boboga yordam bermoqda?	Matnda bevosita aytilmagan sababni xulosa qila olishni
T3. Fakt va fikr	Gaplarning qaysi biri matnda aytilgan, qaysi biri birovning fikri: “Karim bobo yolg‘iz yashaydi”, “Jasur dangasa bola”, “Hashar shanba kuni bo‘ladi”, “Hayvonot bog‘i hashardan qiziqroq”?	Fakt va shaxsiy fikrni ajrata olishni
T4. Baholash va dalillash	Dadasi tanlovni Jasurning o‘ziga qoldirib to‘g‘ri qildimi? Fikringni ikki dalil bilan asosla.	Qahramon xatti-harakatini baholab, pozitsiyasini asoslay olishni
T5. Ravonlik	Jasur nima qilishi mumkin? Iloji boricha ko‘p variant yoz.	G‘oyalar sonini
T6. Egiluvchanlik va originallik	Jasur ham hasharga yordam berib, ham do‘stini xafa qilmasligi uchun qanday noodatiy yo‘l bor?	Turli toifadagi va kamyob g‘oyalarni
T7. Ishlab chiqish	Hikoyaga sarlavha qo‘y va uning davomini 4-5 gapda yoz.	G‘oyani batafsil va izchil rivojlantira olishni
T8. Qadriyatni ko‘chirish	“Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” maqolining hikoyaga qanday aloqasi bor? Shu maqolga mos hayotingdan bir voqeani aytib ber.	Qadriyatni yangi vaziyatga ko‘chira olishni

Topshiriqlar ketma-ketligi ham ahamiyatga ega. Dastlabki uchta topshiriq bolaning matnni tushunganini tekshiradi. Agar o‘quvchi ularni bajara olmasa, keyingi topshiriqlardagi past natija fikrlash darajasidan emas, o‘qib tushunishdagi qiyinchilikdan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Bu holat o‘zbek tilining orfografik shaffofligi bilan bog‘liq muammo, ya’ni ravon o‘qish tushunishni yashirishi bilan izohlanishi mumkin [15]. Natijalarni talqin qilishda T1-T3 alohida tahlil qilinishi lozim.

Baholash tizimi. Har bir topshiriq 0 dan 3 ballgacha baholanadi (2-jadval). Tanqidiy fikrlash bo‘yicha (T1–T4) ham, ijodiy fikrlash bo‘yicha (T5-T8) ham eng yuqori ball 12 ga teng, umumiy eng yuqori natija 24 ball.

2-jadval.

Topshiriqlarni baholash qoidalari

Topshiriq	3 ball	2 ball	1 ball
T1–T2	To‘g‘ri javob matndan dalil bilan berilgan	To‘g‘ri javob dalilsiz berilgan	Javob qisman to‘g‘ri
T3	To‘rtala gap to‘g‘ri ajratilgan	Uchta gap to‘g‘ri ajratilgan	Ikki gap to‘g‘ri ajratilgan
T4	Pozitsiya ikki asosli dalil bilan himoya qilingan	Pozitsiya bitta dalil bilan asoslangan	Pozitsiya bor, dalil yo‘q
T5	To‘rt va undan ortiq mos variant	Uch variant	Bir-ikki variant
T6	Vaziyatga mos va sinfda kam uchraydigan g‘oya	Mos, ammo odatiy g‘oya	G‘oya bor, lekin vaziyatga kam mos
T7	Sarlavha ma’noli, davomi izchil va tafsilotlarga boy	Sarlavha va davom bor, tafsilot kam	Faqat sarlavha yoki bir-ikki gap
T8	Maqol ma’nosi tushuntirilgan va mos hayotiy misol keltirilgan	Maqol ma’nosi tushuntirilgan, misol yo‘q	Maqol hikoyaga yuzaki bog‘langan

Javob bo‘lmasa yoki topshiriqqa mutlaqo aloqasiz bo‘lsa, 0 ball qo‘yiladi. T6 dagi originallikni baholashda Ranko va Yeger ta’rifiga amal qilinadi: g‘oya ham kamyob, ham vaziyatga mos bo‘lishi kerak [7]. Umumiy natija bo‘yicha dastlabki darajalar quyidagicha belgilandi: 18-24 ball - yuqori, 10-17 ball - o‘rta, 0-9 ball - past daraja. Bu chegaralar taxminiy bo‘lib, sinov natijalari asosida aniqlashtiriladi.

O‘tkazish tartibi. 3-sinf o‘quvchilari bilan diagnostika yakka tartibda og‘zaki o‘tkaziladi, javoblar o‘qituvchi tomonidan yozib boriladi. Bu yozish ko‘nikmasi hali yetarli shakllanmagan bolaning fikrlash darajasini yozuv sur’ati bilan aralashtirib yubormaslik uchun zarur. 4-sinflarda topshiriqlar yozma shaklda, 40 daqiqa davomida bajariladi. Matn ikki marta o‘qiladi: avval o‘qituvchi ovoz chiqarib, so‘ng o‘quvchi o‘zi. Diagnostika davomida o‘qituvchi javobga yo‘naltiruvchi savol bermaydi. Pedagogik ta’sirdan oldingi va keyingi holatni solishtirish uchun boshqa qadriyatga, masalan, non qadriga bag‘ishlangan va tuzilishi bir xil bo‘lgan ikkinchi variant ham tayyorlanadi.

Taklif etilayotgan vositaning asosiy farqi shundaki, u ijodiy va tanqidiy fikrlashni bitta matn asosida, bir-biriga bog‘liq holda aniqlaydi. Torrens testlarida bola mazmunan neytral vazifani bajaradi, bizning vositamizda esa u aniq qahramon va aniq qadriyatli vaziyat haqida fikr yuritadi. Bu natijani ta’lim mazmuniga yaqinlashtiradi: o‘qituvchi bola qaysi turdagi fikrlashda qiynalayotganini ko‘radi va buni darhol o‘qish darsidagi ishiga bog‘lay oladi.

Qadriyatli matnning diagnostikada qo‘llanishi bilan bog‘liq bir nozik masala bor. Bola “to‘g‘ri” deb hisoblangan javobni, ya’ni kattalar kutayotgan javobni berishga intilishi mumkin. Masalan, T4 da ko‘p o‘quvchilar Jasurning hasharga borishi kerakligini aytishi kutiladi. Baholash qoidalarimizda pozitsiyaning o‘zi emas, uning asoslanganligi

baholanadi. Hayvonot bog‘iga borishni tanlagan, lekin buni do‘stiga bergan va’dasi bilan asoslagan bola ham yuqori ball oladi. Bu L. Rets va hammualliflarning qadriyat tashqaridan yuklanmasligi kerakligi haqidagi qarashiga mos keladi [12].

Kaufman va Begetto modeli nuqtai nazaridan bizning vositamiz bolalar ijodkorligining “mini-c” darajasini o‘lchaydi [6]. Sinfda kam uchraydigan g‘oya kattalar uchun yangilik bo‘lmasligi mumkin, lekin u bolaning mustaqil izlanishi natijasidir. Originallikni sinf ichidagi javoblar bilan solishtirib baholash o‘rinli deb hisoblaymiz.

Vositaning cheklovlari ham bor. Uning mazmuniy validligi va baholovchilar o‘rtasidagi muvofiqlik hozircha tekshirilmagan. Tadqiqotning keyingi bosqichida topshiriqlarni mutaxassislar ekspertizasidan o‘tkazish, ikki baholovchi tomonidan mustaqil baholash orqali natijalar muvofiqligini aniqlash hamda sinov o‘tkazib, darajalar chegaralarini aniqlashtirish rejalashtirilgan. Bitta matnga asoslangan natija bolaning shu mavzuga qiziqishiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ikki variantli tuzilma aynan shu xavfni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini aniqlash uchun mavjud usullar ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lsa-da, ular odatda alohida qo‘llanishini va milliy qadriyatli mazmunga tayanmasligini ko‘rsatdi. Qadriyatli tanlov va ochiq yakunga ega milliy matn ikkala fikrlash turini bitta diagnostik jarayonda aniqlash uchun qulay asos bo‘ladi.

Biz ishlab chiqqan vosita tanqidiy fikrlashning to‘rt ko‘rsatkichi - ma’lumot topish, sabab-oqibatni aniqlash, fakt va fikrni ajratish, baholash va dalillash hamda ijodiy fikrlashning to‘rt ko‘rsatkichi - ravonlik, egiluvchanlik, originallik va ishlab chiqishni qamrab oladi. Baholash tizimi pozitsiyaning o‘zini emas, uning asoslanganligini hisobga oladi, bu esa qadriyatli matn bilan ishlashda bolaga “to‘g‘ri javob”ni topishga emas, mustaqil fikrlashga imkon beradi. Amaliyot uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga vositani o‘quv yili boshida va oxirida qo‘llash, natijalarni tanqidiy va ijodiy fikrlash bo‘yicha alohida tahlil qilish hamda o‘qish darslaridagi topshiriqlarni shunga mos tanlashni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

3. Mullis I.V.S., von Davier M., Foy P., Fishbein B., Reynolds K.A., Wry E. PIRLS 2021 International Results in Reading. — Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.

4. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. — 1950. — Vol. 5, No. 9. — P. 444–454.

5. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. — Princeton: Personnel Press, 1966.

6. Kaufman J.C., Beghetto R.A. Beyond big and little: The four C model of creativity // Review of General Psychology. — 2009. — Vol. 13, No. 1. — P. 1–12.

7. Runco M.A., Jaeger G.J. The standard definition of creativity // Creativity Research Journal.

— 2012. — Vol. 24, No. 1. — P. 92–96.

8. Facione P.A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. — Millbrae: The California Academic Press, 1990.

9. Ennis R.H. A taxonomy of critical thinking dispositions and abilities // Teaching Thinking Skills: Theory and Practice / Eds. J.B. Baron, R.J. Sternberg. — New York: W.H. Freeman, 1987. — P. 9–26.

10. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. — 5th ed. — New York: Psychology Press, 2014.

11. Mullis I.V.S., Martin M.O. (Eds.). PIRLS 2021 Assessment Frameworks. — Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2019.

12. Raths L.E., Harmin M., Simon S.B. Values and Teaching. — Columbus: Charles E. Merrill, 1966.

13. Lipman M. Thinking in Education. — 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003. — 304 p.

14. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari: psixol. fan. dok. … diss. avtoreferati. — Toshkent.

15. Shabbazova D.R. Boshlang‘ich ta’lim mazmunini aksiologik paradigma asosida tizimlashtirishning metodik asoslari: monografiya. — Termiz, 2026.